

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

26 047

136,4 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

24 786

132,5 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020- yilda)

6 856


170,6 %



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjalari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

26
aksiyadorlik
jamiyati

142
unitar korxona

276
boshqalar

4 606
oilaviy korxona

7 018
xususiy korxona

9 043
mas'uliyati cheklangan
jamiyat

21 111

tijorat korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat — aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; — aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, umumiyl sonidagi ulushi, foizda)



2020- yil yanvar-oktabr oylarida 6 856 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 872 ta, xususiy korxonalar – 1 095 ta, oilaviy korxonalar – 3 664 ta, muassasalar – 52 ta va boshqalar – 173 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 5 062 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 978 taga yoki 4,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 606 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 542 taga yoki 4,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 3 664 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 307 taga yoki 10,3 % martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 9 350 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 806 taga yoki 124,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 043 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 611 taga yoki 121,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 872 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 415 tani tashkil etib, ulardan 399 tasi yoki 96,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 79 taga yoki 124,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 54 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 821	4 402	5 509	7 432	9 043
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	314	367	607	788	1 184
Sanoat	574	714	883	1 198	1 427
Qurilish	596	724	931	1 345	1 510
Savdo	1 136	1 371	1 621	2 244	2 825
Tashish va saqlash	389	478	500	580	625
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	129	173	210	292	348
Axborot va aloqa	66	73	78	99	110
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	36	36	65	93	107
Boshqa turlar	581	466	614	793	907

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	58	58	161	320	399
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6	8	49	83	102
Sanoat	35	34	50	84	111
Qurilish	2	1	11	17	21
Savdo	2	5	31	89	118
Tashish va saqlash	5	4	5	7	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	2	16	17
Axborot va aloqa	1	1	1	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	1	4	4
Boshqa turlar	4	4	11	18	17

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	399	139	260
Termiz sh.	185	33	152
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	20	6	14
Bandixon	x	x	x
Boysun	8	7	1
Muzrabot	15	6	9
Denov	13	6	7
Jarqo'rg'on	15	11	4
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	14	9	5
Termiz	39	15	24
Uzun	31	17	14
Sherobod	14	7	7
Sho'rchi	15	8	7

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,7 %), Denov (11,9 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qumqo'rg'on (7,4 %), Sho'rchi (6,9 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,1 %), Uzun (5,3 %), Qiziriq (5,1 %), Sariosiyo (5,0 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,6 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Denov (12,9 %), Termiz sh. (10,7 %), Qumqo'rg'on (10,6 %), Sho'rchi (7,7 %), Jarqo'rg'on (7,6 %), Sherobod (6,7 %), Qiziriq (6,6 %), Termiz (5,7 %), Boysun (5,7 %), Uzun (5,0 %), Oltinsoy (5,0 %), Muzrabot (4,7 %), Sariosiyo (3,9 %), Angor (3,9 %) va Bandixon (3,3 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,0 %), Termiz (9,4 %), Denov (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Boysun (5,8 %), Qumqo'rg'on (5,6 %), Sherobod (5,5 %), Sho'rchi (5,2 %), Qiziriq (5,2 %), Angor (4,4 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,7 %) va Bandixon (1,5 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (12,5 %), Denov (11,7 %), Sherobod (9,1 %), Boysun (8,0 %), Qiziriq (7,9 %), Jarqo'rg'on (7,7 %), Oltinsoy (6,5 %), Sho'rchi (6,3 %), Uzun (6,2 %), Termiz (4,9 %), Muzrabot (4,6 %), Termiz sh. (4,6 %), Sariosiyo (4,0 %), Angor (3,1 %) va Bandixon (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat ^Preestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, and various service sections like ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, and KONTAKTLAR. A search bar at the top right has "Qidirish" (Search) and "Qidirish" (Search) buttons. The central content area features a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The main search interface is titled "Xizmatlar ro'yxati" and includes links for Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubly materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. It also features a "Rasmidagi kodni kiriting" input field, a "Kodni yangilash uchun rasmga bosing" button, and a "Qidiruv" (Search) button. To the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to Aholini ro'yxtarga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relezzlar, Choraklik natijalar, Nashriar – statistika haqida, Uslubly materiallar, and Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**